

O'ZBEKISTONNING XAVFSIZLIK SOHASIDAGI XALQARO REYTINGLARDA TUTGAN O'RNIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI ISLOHOTLARINING TA'SIRI



Baxtiyarova Sevara Ravshan qizi

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. O'zbekistonda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "Yangi O'zbekiston" va "O'zbekiston – 2030" strategiyalari asosida ichki ishlar organlari faoliyati tubdan yangilandi. Maqolada mazkur islohotlarning mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi (Safety Perceptions Index, Rule of Law Index, Global Innovation Index va boshqalar) ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar islohotlari, jamoat xavfsizligi, xalqaro reytinglar, qonun ustuvorligi, xavfsizlik indeksi, islohot samaradorligi.

Аннотация. В последние годы в Узбекистане были реализованы глубокие реформы в сфере обеспечения общественной безопасности и верховенства закона. На основе стратегий «Новый Узбекистан» и «Узбекистан – 2030», принятых по инициативе Президента Шавката Мирзиёева, деятельность органов внутренних дел была коренным образом обновлена. В статье проанализировано влияние данных реформ на показатели страны в международных рейтингах и индексах (Safety Perceptions Index, Rule of Law Index, Global Innovation Index и других).

Ключевые слова: реформы органов внутренних дел, общественная безопасность, международные рейтинги, верховенство закона, индекс безопасности, эффективность реформ.

Abstract. In recent years, Uzbekistan has carried out comprehensive reforms in the field of public safety and the rule of law. Within the framework of the "New Uzbekistan" and "Uzbekistan – 2030" strategies initiated by President Shavkat Mirziyoyev, the activities of internal affairs bodies have undergone substantial transformation. This article examines the impact of these reforms on the country's performance in international rankings and indices, including the Safety Perceptions Index, the Rule of Law Index, and the Global Innovation Index.

Keywords: reforms of internal affairs bodies, public safety, international rankings, rule of law, safety index, effectiveness of reforms.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi va huquq-tartibot tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiyaning ustuvor vazifalaridan biri jamoat xavfsizligini ta'minlash va qonun ustuvorligini mustahkamlash etib belgilangan.

2016–2025-yillarda ichki ishlar organlari faoliyatiga doir 41 ta qonun, 26 ta Prezident farmoni va 100 ta qaror, 232 ta Hukumat qarori hamda 265 ta idoralararo hujjatlar qabul qilinib, ichki ishlar organlarini tubdan isloh etishga xizmat qiluvchi mustahkam huquqiy baza shakllantirildi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari mamlakat xavfsizligi va jamoat tartibini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot va Tinchlik

institutining “Safety Perceptions Index”, “Numbeo Crime Index”, Jahon bankining “Women, Business and Law”, World Justice Project’ning “Rule of Law Index” kabi hisobotlari bu sohada xalqaro baholarni shakllantiradi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, davlat xavfsizlik tizimidagi islohotlar va jamoatchilik nazorati indikatorlari mamlakatning xalqaro imijiga to’g’ridan to’g’ri ta’sir ko’rsatadi.

Milliy islohotlarning samaradorligini xalqaro mezonlar asosida baholash maqsadida, O’zbekistonning turli **xalqaro reyting va indekslardagi o’rniga** alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2024-yil 16-avgustdagi Oliy Majlis Senatining qaroriga muvofiq, ayrim asosiy xalqaro indekslarda mamlakat natijalarini oshirish vazifasi bevosita Ichki ishlar vazirligiga yuklatildi [1]. Bu indeks va reytinglar qonun ustuvorligi, xavfsizlik, korrupsiyaga qarshi kurash, innovatsion rivojlanish kabi sohalaridagi holatni xolis baholaydigan muhim mezonlar hisoblanadi. Shu sababli, Ichki ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish orqali jamoat xavfsizligini yaxshilash va qonun ustuvorligini ta’minlash mamlakatning xalqaro indekslardagi o’rnini sezilarli ravishda ko’tarishga xizmat qilmoqda.

O’zbekiston oxirgi yillarda xavfsizlik bo’yicha xalqaro ko’rsatkichlarda barqaror ijobiy tendensiya namoyon etib kelmoqda. **Numbeo ma’lumotlar bazasining 2025 yilgi ma’lumotlariga ko’ra**, O’zbekiston **“Xavfsizlik indeksi”** (Safety Index) **da 73,4 bal**, **“Jinoyatchilik indeksi”** (Crime Index) **da 26,6 ball** bilan dunyodagi eng xavfsiz mamlakatlar orasida 25-o’rinni egalladi [2]. Bu ko’rsatkich Markaziy Osiyoda eng yuqori bo’lib, qo’shni Qozog’iston 73-o’rinni (45,6 ball), Qirg’iziston 101-o’rinni (52,0 ball) egallagan. Numbeo reytingida mamlakatimizning jinoyatchilik darajasi “juda past” toifaga kiritilgan.

Aytish joizki, mazkur natijalar “O’zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatimizda “Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” qabul qilinib, islohotlarning aynan xavfsiz muhitni yaratishga qaratilganligidir.

Mazkur konsepsiya asosida bir qator “inson omili”ni istisno etuvchi milliy mexanizmlar yaratildi. Xususan:

– 60 ta vazirlik va idoralarga integratsiyalashgan ma’muriy huquqbuzarliklar va yo’l harakati

qoidabuzarliklari bo’yicha bayonnomalarni elektron tarzda rasmiylashtirish amaliyoti yo’lga qo’yildi;

– aholini kiberjinoyatlardan ogoh bo’lishi bo’yicha viktimologik profilaktikani o’tkazish va bank plastik kartalardan xavfsiz foydalanishni manzilli tushuntirish amaliyoti yo’lga qo’yildi;

– barcha hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash holatini Xalq deputatlari kengashlarida muhokama qilish amaliyoti yo’lga qo’yilib, jamoat xavfsizligini ta’minlash ahvolini yaxshilash bo’yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish tartibi joriy etildi;

– ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati naryadlari va Milliy gvardiyaning bir-biridan mustaqil patrul xizmati yo’lga qo’yildi;

– kriminogen jihatidan nisbatan murakkab hududlarda mahalliy byudjet mablag’lari hisobidan tumanlararo patrul-post xizmati otryadlarini tashkil etish amaliyoti yo’lga qo’yildi;

– jamoat joylarida sovuq qurol olib yurish, o’qotar ov va pnevmatik qurollarning aylanmasi qoidalariga amal qilmaslik uchun alohida javobgarlik belgilandi;

– yo’l-patrul xizmatiga zamonaviy patrul avtomashinalari, “bodikamera”, alkotester, huquqbuzarlikni qayd etuvchi planshetlar ajratildi;

– Yo’l harakati xavfsizligi xizmatida Multimedia markazi va “Situatsion markaz” tashkil etilib, mavjud axborot tizimlariga integratsiya qilindi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasi o’laroq, qotillik ko’rsatkichi (Homicide Rate), Jahon banki va BMT ma’lumotlariga ko’ra, 2021-yilda O’zbekistonda har 100 ming aholiga **atigi 1,4 tani** tashkil etdi [3]. Bu global o’rtacha ko’rsatkichdan bir necha barobar kamdir. Masalan, 2022-yilda dunyo bo’yicha o’rtacha qotillik koeffitsiyenti 5,6 ga teng bo’lgan. O’zbekiston ushbu ko’rsatkich bo’yicha dunyodagi eng past qotillik darajasiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Bunday natijaga erishishda ichki ishlar organlarining o’rni va amalga oshirgan chora-tadbirlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, islohotlar natijasida **jinoyatchilik profilaktikasi va patrul-post xizmati** yangi bosqichga olib chiqildi. Bugun mahallalarda 10 mingga yaqin profilaktika inspektorlari faoliyat yuritib, har bir mahallaning jinoyatchilik holati “mahalla pasporti”

orqali doimiy nazoratga olinmoqda. Jamoat joylarida tartibni saqlash uchun avtopatrul naryadlari soni **3,5 barobarga** ko'paytirilib, shaxsiy tarkibning yarmidan ko'prog'i patrul xizmatiga jalb etildi. Davlat rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan **"Xavfsiz shahar" konsepsiyasi** doirasida ichki ishlar tizimida 14 ta tezkor boshqaruv markazi va 130 ta videokuzatuv monitoring markazi tashkil etilib, ularga jami **20 mingdan ortiq kamera integratsiya** qilindi. Turistik hududlarda **"Xavfsiz turizm"** maxsus politsiya bo'linmalari tashkil etildi. Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarining yirik turistik hududlarida sayyohlar xavfsizligi qat'iy nazoratga olingan.

Ichki ishlar organlarining samarali faoliyati aholining turmush sifati, ijtimoiy himoyasi hamda gender tenglik sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, **"Huquq ustuvorligi" indeksi** (*WJP Rule of Law Index*) bo'yicha O'zbekiston 142 davlat ichida umumiy hisobda 0,50 ball bilan **81-o'rinni** egallagan [4]. Xususan, jamoat tartibining ta'minlanishi mezoni – **"Tartib va xavfsizlik"** ko'rsatkichi bo'yicha davlatimiz 0,90 ball to'plab, dunyoda 19-o'rinni egallagan. Bu esa jamoat xavfsizligi darajasi juda yuqori ekanidan dalolat beradi.

Huquq ustuvorligini mustahkamlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi faoliyati so'nggi yillarda **"Xalqchil ichki ishlar organlari"** tizimiga o'tkazilib, ichki ishlar organlari uchun raqamlar ortidan quvish emas, balki fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Muhim huquqiy islohotlar quyidagilarni o'z ichiga oldi, jumladan: 2017-yildan boshlab sud amaliyotida qiyonoq orqali olingan har qanday ko'rsatma va dalillar haqiqiy emas deb topilishi va ishda dalil sifatida rad etilishi tartibi joriy etildi. Bu chora tergovda qiyonoqqa barham berishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Ichki ishlar organlarida so'rov va tergov harakatlarini to'liq videokuzatuv ostida olib borish talabi belgilandi. Zamonaviy standartlarga mos maxsus so'rov xonalari tashkil qilinib, ular bir tomonlama ko'rish imkoni (Gezella oynasi) va video konferensaloqa tizimi bilan jihozlandi.

Jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyillarini joriy etish maqsadida "Jasliq" qamoqxonasi

va yana 3 ta koloniya tugatildi. Ozodlikdan mahrum etish jazosiga muqobil ravishda **Probatsiya xizmati** tashkil etildi va ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasidan boshqa jazolarni qo'llash amaliyoti kengaydi. Natijada, jazoni o'tash muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar soni sezilarli darajada qisqardi.

Yo'l-patrul xizmati, avtomototransport vositalarini ro'yxatga olish, pasport-viza berish kabi sohalar to'liq elektron tizimga o'tkazildi. Interaktiv davlat xizmatlarining joriy etilishi orqali ortiqcha byurokratik to'siqlar olib tashlandi. Masalan, haydovchilar uchun jarimalarni onlayn to'lash, avtomatlashtirilgan radar va kameralar orqali qoidalar nazorati yo'lga qo'yildi. **Freedom House** hisobotiga ko'ra, videokuzatuv kameralari va elektron jarima tizimi tufayli yo'l harakati xavfsizligi xizmati inspektorlari orasida pora olish holatlari sezilarli kamaygani qayd etilgan [5]. Ya'ni, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari orasida kichik korrupsion holatlarni kamaytirishda elektron nazorat samara bermoqda.

Islohotlar natijasida O'zbekiston ichki ishlar tizimi "jazolovchi tuzilma"dan xalq manfaatiga xizmat qiluvchi tuzilmaga o'zgarib bormoqda.

Davlat boshqaruvi sifati bo'yicha xalqaro reytinglarda mamlakatimiz ichki siyosiy barqarorlik va jamoat xavfsizligi jihatidan mintaqada yetakchi ko'rsatkichlarga ega. Xorijiy ekspertlar O'zbekistonni "juda past zo'ravonlik xavfi" mavjud davlatlar qatoriga kiritmoqda. Masalan, **Global terrorizm indeksida** (*Global Terrorism Index*) O'zbekiston 163 davlat orasida 90-o'rinni egallab, terror tahdidi darajasi past mamlakat sifatida qayd etilgan. Shuningdek, **Global uyushgan jinoyatchilik indeksining** 2023-yilgi natijalariga ko'ra, O'zbekiston 193 davlat orasida 100-o'rinda bo'lib, uyushgan jinoyatchilik ko'lamini nisbatan kam davlatlar qatoriga kirdi [6].

2025-yilgi **Global innovatsiya indeksi** (*Global Innovation Index*) natijalari bo'yicha O'zbekistonning ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatilgan [7]. Unga ko'ra, O'zbekiston 139 mamlakat orasida 79-o'rinni egallab, davlatimiz tarixidagi eng yuqori natija – top 80 talik ko'rsatkichi qayd etildi. 2024-yilda 24,7 ball bilan 83-o'rinni egallagan bo'lsa, 2025-yilda 26,5 ball bilan 79-o'ringa ko'tarildi (o'sish +4 pag'ona). Daromad

guruhiga ko'ra 2024-yilda 10-o'rin, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 4-o'rin, 2025-yilda esa mutanosib ravishda 7-o'rin va 3-o'ringa ko'tarildi. Bu Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston (39-o'rin) va Eron (62-o'rin)dan keyingi 3-o'rin degani bo'lib, qo'shni Qozog'iston (81-o'rin), Rossiya (91-o'rin) va Turkiya (93-o'rin)da. Ushbu natijalarga ichki ishlar organlarida hujjatlashtirish va davlat xizmatlarini **raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar** orqali erishildi. Masalan, IIV tarkibidagi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi tomonidan ID-karta va biometrik pasportlar tizimi to'liq yo'lga qo'yildi, propiska va viza rasmiylashtirish jarayonlari elektron shaklga o'tkazildi.

BMTning Yo'l harakati xavfsizligiga oid global hisobotiga muvofiq, O'zbekiston yo'llarda halok bo'lish xavfi bo'yicha 178 ta davlat orasida **60-o'rinni** egallab turibdi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda yo'l-transport hodisalari oqibatidagi o'lim koeffitsiyenti taxminan har 100 ming aholiga 11–12 tani tashkil etadi, bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan yaxshiroqdir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilga nisbatan 2023-yilda YTH soni 35% ga, yo'llarda halok bo'lganlar soni 40% ga kamaygan. Bunday sezilarli qisqarishga YPX inspektorlarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va harakatni avtomatlashtirilgan nazorat qilish hisobiga erishilmoqda. Masalan, yo'llarida **2,5 mingdan ziyod kamera va radarlar** o'rnatilib, aholi yashash hududlarida tezlik cheklovi 60 km/soatga tushirilgandan keyin kamera o'rnatilgan joylarda avariya **30 foizga kamaygani** aniqlandi. Yo'l-patrul xizmati xodimlari 6100 dan ortiq bodikamera, 6500 ga yaqin planshet va 179 ta zamonaviy radarlar bilan ta'minlandi. Xalqaro tajribaga asoslangan "**Vision Zero**" strategiyasi qabul qilinib, yo'llarda o'lim holatlarini imkoni boricha nolga tushirish maqsad qilingan.

"**Ayollar, biznes va qonun**" indeksi (*Women, Business and Law*) – Jahon bankining mazkur tadqiqoti 2024-yil natijalariga ko'ra, O'zbekiston 82,5 ball to'plab, **190 davlat orasida 90-o'rinni** [8] egallagan va 2023-yilda dunyoda gender tenglik qonunchiligi bo'yicha eng katta islohotchilar beshligiga kirgan. Ushbu natijaga 2023-yilning aprelida O'zbekiston Respublika-

sining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslariga oilaviy zo'ravonlikni (jismoniy, psixologik yoki iqtisodiy zo'ravonlik) birinchi marta alohida jinoiy javobgarlik sifatida belgilash haqidagi o'zgartishlarning kiritilishi muhim asos bo'lgan. Yangi qonunchilikka muvofiq, turmush o'rtoq yoki yaqin qarindosh tomonidan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonlik uchun jazolar kuchaytirildi. Shuningdek, IIV tizimida ayollar va bolalarni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilishga ixtisoslashgan bo'linmalar tashkil etildi. Profilaktika inspektorlari tomonidan mahalliy darajada maishiy zo'ravonlik holatlariga tezkor chora ko'rish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu choralar samarasi o'laroq, Jahon banki hisobotida O'zbekiston 2024-yilda xotin-qizlarning huquqiy imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha eng ilg'or islohotchi davlatlar qatorida e'tirof etilgan.

Keng qamrovli islohotlar natijasida O'zbekiston jamoat xavfsizligi va ichki barqarorlik bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan joy egallab kelmoqda. **Numbeo xavfsizlik indeksining** birinchi choragiga kirishi, terrorizm tahdidi bo'yicha xavfli ko'rsatkichi eng past mamlakatlar safida e'tirof etilishi – bularning barchasi olib borilayotgan islohotlar samarasidir.

Ichki ishlar organlari mamlakat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jinoyatchilik profilaktikasi tizimining takomillashtirilgani, ichki ishlar organlarining xalqqa yaqinlashgani, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabat jinoyatchilik darajasini sezilarli kamaytirdi. Aholining huquq-tartibot idoralariga bo'lgan ishonchi oshdi.

Erishilgan yutuqlarni mustahkamlash uchun jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, har bir fuqaroda "ichki ishlar organlari – mening himoyachim" degan ishonch tuyg'usini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "**Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi**" doirasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar fuqarolarning erkin va xavfsiz yashashi uchun xizmat qilishi kerak. Ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan bu mas'uliyatli vazifa O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2024-yil 16-avgustdagi "O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi SQ-963-IV-son qarori.
2. Numbeo Crime Index by Country 2025 Mid-Year. Elektron manbaa: https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp?title=2025-mid.
3. Our World in Data. Homicide rate per 100,000 population. 2024. Elektron manbaa: <https://ourworldindata.org/grapher/homicide-rate-unodc>.
4. WJP Rule of Law Index 2025. Elektron manbaa: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2025/Uzbekistan>.
5. Freedom House. Freedom in the World 2024. Uzbekistan. <https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedomworld/2024#:~:text=Corruption%20is%20pervasive,video%20surveillance%20and%20traffic%20cameras>
6. Global Organized Crime Index. 2023. <https://ocindex.net/country/uzbekistan#:~:text=Criminality%20score>.
7. Global Innovation Index 2024. Uzbekistan ranking in the Global Innovation Index 2024. <https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2024/uz.pdf>.
8. Women, Business and the Law 2024. Elektron manbaa: <https://wbl.worldbank.org/en/wbl>.

